



EMOTSIONAL METAFORALARNING TIL VA MADANIYATDAGI AKS ETISHI: MAQOL VA FRAZELOGIZMLAR MISOLIDA

Shavkatova Sevinch Abdulla qizi

Samarqand davlat chet tillar institute 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20342382>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 21st May 2026

Published: 22nd May 2026

KEYWORDS

emotsional metafora, frazeologizm, maqol, lingvomadaniyat, milliy mentalitet, konsept, emotsiya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek va italyan tillaridagi emotsional metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlari frazeologik birliklar hamda maqollar misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida quvonch, uyat, g'azab kabi emotsiyalarning metaforik ifodalanish usullari o'rganilib, ularning milliy-madaniy va kognitiv jihatlari yoritiladi. Shuningdek, ikki tildagi o'xshash va farqli metaforik modellar orqali xalqning dunyoqarashi, mentaliteti hamda emotsional tafakkuri aks etishi ko'rsatib beriladi.

Kirish

Ushbu tadqiqotda emotsional metaforalarning til va madaniyatdagi aks etishi o'zbek va italyan tillari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional ma'noning frazeologik birliklar hamda xalq maqollari orqali ifodalanish xususiyatlari ko'rib chiqilib, ularning lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatlari ochib beriladi. Inson emotsiyalari til vositasida ifodalanar ekan, ular nafaqat ruhiy holatni tasvirlaydi, balki muayyan xalqning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli emotsional metaforalar tilning obrazlilik darajasini namoyon etuvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Frazeologizmlar va maqollar xalqning asrlar davomida shakllangan ramziy tasavvurlari, stereotiplari hamda hayotiy tajribasini aks ettiruvchi barqaror birliklar sifatida emotsional konseptlarning mazmunini chuqur ochib beradi. Ayniqsa, sevgi, quvonch, g'azab, qo'rquv, qayg'u kabi emotsiyalar turli metaforik obrazlar orqali ifodalanib, til egalarining hissiy olamiga xos milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon qiladi. Shu jihatdan emotsional metaforalarni maqol va frazeologik birliklar asosida tadqiq etish til hamda madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada o'zbek va italyan tillaridagi emotsional metaforalar qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, ularning umumiy hamda farqli tomonlari aniqlanadi. Xususan, ayrim emotsional konseptlarning har ikki tilde o'xshash metaforik modellar orqali ifodalanishi inson tafakkuridagi universal xususiyatlarni ko'rsatsa, ayrim birliklarning mazmuni va obrazlilik tizimidagi tafovutlar esa milliy mentalitet hamda madaniy muhit izohlanadi. Shuningdek, frazeologizm va maqollarning muqobil variantlari tahlili orqali bir emotsional ma'noning turli tillarda qanday obrazlar vositasida ifodalanishi, tarjima jarayonida esa qanday semantik va madaniy farqlar yuzaga kelishi yoritiladi.

Asosiy qism

Til egalari ongida borliq haqidagi tasavvurlar konseptlar orqali shakllanadi va ular tilning turli qatlamlarida, jumladan frazeologik birliklarda ham o'z ifodasini topadi. Frazeologizmlar nafaqat ko'chma ma'no anglatuvchi barqaror birliklar, balki xalqning dnyoqarashi, madaniy qadriyatlar va milliy tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatdan birikmaga yoki gapga teng, mazmunan so'zga mos, yaxlitligicha ko'chma ma'no anglatuvchi lug'aviy birlikka frazeologizm (ibora) deyiladi¹. Frazeologizmlar mazmunning yaxlitligi, ifodaning ixchamligi hamda nutqqa obrazlilik va ta'sirchanlik baxsh etishi bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi. Ular kommunikativ jarayonda fikrni yanada aniq, emotsional va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilib, frazeologik birliklarning semantik, uslubiy va lingvomadaniy xususiyatlari atroflicha yoritilgan. Xususan, Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova, M. Abduraximov, A.E. Mamatov, B. Yo'ldashev, M.K. Xalikova, K.D. To'xtayeva, Sh. Abdullayev, G.S. Hakimova hamda G.Ergasheva kabi olimlar ushbu yo'nalishning nazariy asoslarini rivojlantirishga muhim hissa qo'shganlar.

Muayyan tilni chuqur egallash jarayonida undagi frazeologik birliklarni puxta bilish muhim o'rin tutadi. Chunki frazeologizmlar xalqning milliy qadriyatlar, yashash tarzi, urf-odatlar, dunyoqarashi va mentaliteti bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. "Tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar, odob-axloqi va hokazolar mujassamlashgan", - deb yozadi V.A. Maslova².

Mazkur jihatlar italyan tili frazeologik birliklarida ham yaqqol namoyon bo'lib, ular orqali xalqning milliy tafakkuri, hissiy dunyosi va madaniy qarashlarini anglash mumkin. Shu bilan birga, o'zbek frazeologik birliklari hamda ularning italyan tilidagi muqobil variantlarini qiyosiy o'rganish ikki xalqning lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

O'zbek tilidagi "og'zi qulog'ida" frazeologik birligi insonning nihoyatda xursand, mamnun va quvonchga to'la holatini ifodalash uchun qo'llaniladi. Bu iborada emotsional holatning tashqi ko'rinish, ya'ni yuz ifodasi orqali obrazli tarzda tasvirlanishiga asoslanadi. Unda insonning keng tabassumi shunchalik kuchli tasvirlanadiki, go'yoki og'zi quloqlarigacha yetgandek tasavvur uyg'otadi. Shu jihatdan ushbu birlik quvonchning somatic va visual kodlar orqali ifodalangan yorqin namunasi hisoblanadi. Frezeologizm tarkibidagi "og'iz" va "quloq" komponentlari inson tanasi bilan bog'liq bo'lib, emotsiyaning jismoniy belgilar orqali verbalizatsiyasini ko'rsatadi. Bu esa quvonchni inson yuzidagi mimik o'zgarishlar bilan bog'lash orqali xalq tafakkurida shakllangan emotsional tasvirni namoyon etadi.

Italyan tilida ushbu mazmunga yaqin bo'lgan "sorridere da orecchio a orecchio" iborasi mavjud bo'lib, u ham "quloqdan quloqqacha tabassum qilmoq" ma'nosini beradi. Mazkur birlik ham quvonchning yuzdagi ifodasi orqali shakllanadi va visual obrazli xarakterga ega. Har ikki tilde quvonch emotsiyasi yuzning ochilishi, keng tabassum va tashqi ifoda orqali konseptuallashtiriladi. Bu holat emotsional tajribaning universal jihatini ko'rsatadi, ya'ni quvonch ko'pincha insonning yuz ifodasi bilan bog'liq holda idrok etiladi. Shu bilan birga, har

¹Rahmatullaev Sh. Nutqimiz ko'rki. T., Fan, 1970, 56-bet.

²Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. – М.: Academia, 2004. – 204 с.

bir til bu holatni o'ziga xos milliy-obrazli vositalar orqali ifodalaydi. O'zbek tilidagi ibora ko'proq jonli, xalqona tasvir va ekspressiv tusga ega, italyan tilidagi variant esa stilistik jihatdan neytralroq qo'llaniladi.

Yana bir xalqona ibora "yer yorilmadi, yerga kirmadi" o'zbek tilida, asosan, insonning kuchli uyat, xijolat yoki sharmandalikdan qutulib ketolmay qolish holatini ifodalab keladi. Unga ko'ra, "yerga kirib ketish" istagi obrazli tasvirlanib, shunday vaziyatni anglatadiki, odam o'zini juda noqulay his qilib, xuddiki yashirinib qolishni, yo'q bo'lib ketishni xoxlaydi. Ya'ni emotsiya o'zini yo'qotish darajasidagi uyat bilan bog'lanadi. Italyan tilida esa ushbu ma'noga eng yaqin ifoda "volere sprofondere sottoterra"(yer ostiga singib ketgisi kelmoq) yoki "non sapere dove mettersi"(o'ziga joy topa olmaslik) hisoblanadi. Ikki tilni taqqoslaydigan bo'lsak, o'zbek tilida uyat emotsiyasi yerga kirish(pastga tushish) orqali juda kuchli va dramatic obrazda ifodalansa, italyan tilida bu holat pastga yo'naltirilgan harakat yoki joy topa olmaslik metaforasi bilan beriladi. Umumiy olib qaraganda, ikki tilde ham uyat emotsiyasi insonning ijtimoiy noqulaylikdan qochish istagini ko'rsatadi, aniq qilib aytsak, uyat=yo'q bo'lib ketish/yashirinish konseptual modeli asosida ifodalanadi.

Maqol va matallar xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari, turmushdagi turli hodisa-voqealarga munosabati demakdir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlariga munosabatida yaratiladi. Xalq maqoli -xalqning mulkidir. Maqol qayg'usi - xalq qayg'usi, maqol g'azabi - xalq g'azabi, maqol kulgisi - xalq kulgisi va maqol kinoyasi - xalq kinoyasi demakdir. Maqol yaratmagan bironta til, maqol ishlatmagan bironta xalq yo'q³.

Maqol "arabcha" so'zdan olingan bo'lib, maqola, kichik asar, so'z, nutq degan ma'nolarni anglatadi. Maqollar hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan pand-nasihatchilik mazmuniga ega bo'lgan ixcham tugal ma'noli gapdir. Maqollarda avlod-ajdodlarning jamiyat va tabiatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari ijobiy va salbiy fazilatlar haqida mulohazalar aks ettiriladi⁴. Italyan tilida maqol atamasi asosan "proverbio" so'zi orqali ifoda etiladi. Ayrim ilmiy va adabiy manbalarda esa unga yaqin ma'noli adage, dictum, maxim, motto, precept, saw, truism kabi atamalar ham uchraydi, ular ma'lum bir hikmatli, ixcham va umumlashtiruvchi mazmunga ega nutq birliklarini ifodalash uchun qo'llanilib keladi. Biroq bu atamalarning barchasi ham to'liq ma'noda "maqol" tushunchasini emas, balki uning turli semantik va stilistik ko'rinishlarini bildiradi. O'zbek xalq maqollari kabi italyan xalq maqollari ham xalq og'zaki ijodining eng keng tarqalgan va muhim janrlaridan biri hisoblanadi. Ular jamiyatning ko'p asrlik tajribasi, axloqiy qarashlari va madaniy tafakkurini ixcham, ammo obrazli tarzda tasvirlaydi.

"Volere è potere" (Xohlash - bu kuch) o'zbekcha muqobil variant "Xohish bo'lsa imkon topiladi" bo'ladi, unda iroda qat'iyat va ichki motivatsiya bo'lsa, inson har qanday maqsadga erisha oladi degan emotsional-falsafiy g'oyani ifodalaydi. Italyan maqolida emotsional markaz "volere" (xohlash, istak, ichki emotsiya) va "potere"(kuch,imkoniyat) o'rtasidagi bog'liqlik orqali beriladi. Bunda asosiy g'oya shuki, insonning ichki istagi(emotsiyasi) uning tashqi harakat va natijasini belgilaydi. O'zbek maqollarida ham xuddi shu konsept mavjud bo'lib, unda istak va iroda insonning imkoniyatlarini ochib beruvchi asosiy kuch sifatida talqin qilinadi. Ammo, o'zbek tilida bu fikr ko'proq "yo'l topish" yoki "imkon topish" metaforasi orqali ifodalanadi.

³Salomov F. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. - Toshkent:O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. - 7 -bet.

⁴Mirzayev. T. O'zbek xalq maqollari.- Toshkent: Sharq, 2012

“Ride bene che ride ultimo”(oxirida kulgan yaxshi kuladi) – “Yaxshi ot keyin chopar” mazmunan ushbu maqolga juda mos keladi, har ikkisida ham natijaning kechikib bilinish g’oyasi ilgari suriladi. Italyan maqolida “kulish”(ride) emotsiyasi markaziy metafora bo’lib, u hayotdagi muvaffaqiyat yoki g’alabaning ramzi sifatida ishlatiladi. Ya’ni “kim oxirida kulsa, haqiqiy g’olib” degan g’oya emotsiya orqali beriladi. O’zbek maqolida esa emotsiya bevosita “kulgi” orqali emas, balki ot(tezlik, kuch, natija ramzi) orqali aks ettiriladi.

“La rabbia è cattiva consigliera”(g’azab yomon maslahatchi) – bu yerda “rabbia”(jahl) emotsiyasi aqlni boshqaruvchi salbiy kuch sifatida tasvirlanadi. Jahl paytida inson to’g’ri fikrlay olmaydi, noto’g’ri qarorlar qabul qiladi degan emotsional-kognitiv g’oyani tasvirlaydi.

O’zbek tilidagi “Jahl – aqlning dushmani” maqoli ham xuddi shu konseptni beradi. Unda jahl insonning mantiqiy fikrlashini to’sadigan, uni noto’g’ri qaror va xatti-harakatlarga olib boradigan kuch sifatida talqin qilinadi. Qiyosiy jihatdan qaraganda, har ikki madaniyatda ham g’azab emotsiyasi aqlga qarshi turuvchi salbiy kuch sifatida konseptuallashtiriladi. Italyan tilida bu holat “yomon maslahatchi” metaforasi orqali berilsa, o’zbek tilida esa “dushman” obrazi ishlatiladi. Demak, italyan maqolida g’azab insonni noto’g’ri yo’lga boshlovchi ichki maslahatchi sifatida, o’zbek maqolida esa aql bilan kurashuvchi tashqi kuch sifatida namoyon bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar va maqollar xalqning milliy tafakkuri, madaniyati hamda emotsional dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vositalardir. O’zbek va italyan tillari misolida olib borilgan tahlillar har ikki xalq tilida quvonch, uyat, g’azab kabi emotsiyalar obrazli va metaforik shaklda ifodalanishini ko’rsatdi. Shu bilan birga, bu birliklarda milliy mentalitet va madaniy qarashlarga xos o’ziga xosliklar ham yaqqol namoyon bo’ladi. Demak, frazeologizmlar va maqollar xalqning til boyligini, balki uning ruhiyati va olamini idrok etish tarzini ham yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. – 2-е изд. – М.: Academia, 2004. – 204 с.
2. Mirzayev T. O’zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2012.
3. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko’rki. – Toshkent: Fan, 1970. – 56-bet.
4. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati. – Toshkent: O’qituvchi, 1978.
5. Salomov F. Rus tilidan o’zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. – Toshkent: O’zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. – 7-bet.
6. Treccani. Vocabolario della lingua italiana. – Roma, 2012.